



MIGRANTLAR HUQUQLARINING XALQARO VA MILLIY HUQUQIY KAFOLATLARI: REAL HIMOYA VA QOG'OZDAGI QONUN

Temirova Mehribon Hakim qizi

TDYU Jinoiy odil sudlov fakulteti 3- bosqich talabasi

mehribont1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18933609>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 06-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 08-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 10-mart 2026 yil

KEYWORDS

Migrantlar huquqlari, mehnat migratsiyasi, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, huquqiy kafolatlar, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik tamoyili, xalqaro hamkorlik, inson huquqlari, migratsiya siyosati, huquqiy himoya mexanizmlari.

ABSTRACT

Ushbu maqola migrantlar huquqlarining xalqaro va milliy huquqiy kafolatlarini tahlil qiladi va ularning amaliy samaradorligini baholaydi. Tadqiqot doirasida International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families, BMT monitoring mexanizmlari va O'zbekiston Respublikasidagi mehnat migratsiyasi sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan 2024-yilgi islohotlar va 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiya tahlil qilinadi. Huquqiy-normativ, qiyosiy-huquqiy va amaliy holatlar tahlili metodlari qo'llanildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, normativ asos mavjud bo'lsa-da, amaliy ijrodagi zaifliklar, monitoringning yetarli emasligi va xalqaro hamkorlikning samarador emasligi migrantlar huquqlarini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda. Maqolada ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

Bugungi globallashuv va integratsiya jarayonlari fonida xalqaro migratsiya masalasi inson huquqlari sohasida eng dolzarb muammolardan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Turli iqtisodiy, siyosiy va ekologik omillar natijasida millionlab insonlar o'z vatanini tark etib, boshqa mamlakatlarda yashash yoki ishlashga majbur bo'lmoqda. Ushbu jarayonda migrantlarning huquqlari masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquq doirasida qabul qilingan ko'plab konvensiyalar va milliy qonunchilik hujjatlarida migrantlarning asosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish belgilab qo'yilgan. Biroq, amaliyotda ko'pincha ushbu kafolatlar qog'ozda qolib ketib, migrantlar huquqlarining buzilishi bilan bog'liq ko'plab holatlar kuzatilmoqda. Shu sababli, migrantlar huquqlarining xalqaro va milliy huquqiy kafolatlarini o'rganish nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston ham global migratsiya jarayonlarining faol ishtirokchilaridan biri bo'lib, mamlakatdan chiqib ketayotgan va qaytib kelayotgan mehnat migrantlari soni yildan yilga ortib bormoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati migrantlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni imzoladi va tegishli islohotlarni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Xususan, davlatimiz rahbarining 2019-yil 20-avgustdagi «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston

Respublikasi fuqarolari va ularning oila a'zolarini himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish choralari to'g'risida»gi farmonini va 2020-yil 14-sentyabrdagi «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-avgustdagi «Xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorini va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni buning yaqqol isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Shunga qaramay, migrantlarning haq-huquqlari to'liq ta'minlanayotganini aytish qiyin. Ish beruvchilar tomonidan ularning huquqlari buzilishi, mehnat sharoitlarining qoniqarsizligi, huquqiy himoyaning zaifligi kabi muammolar hanuz dolzarbdir.

Mazkur mustaqil ish migrantlar huquqlarini xalqaro va milliy darajada kafolatlovchi huquqiy normalarni tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash va amaliyotdagi kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi xalqaro va milliy huquqiy kafolatlarning qanchalik samarali ishlashini o'rganish, mavjud muammolarni tahlil qilish hamda bu boradagi huquqiy tizimni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida huquqiy-normativ tahlil, taqqoslash usuli va xalqaro amaliyotga asoslangan holatlar tahlili metodlaridan foydalaniladi.

Asosiy qisim

Mavzu doirasida asosiy ilmiy va huquqiy muammolar uch yo'nalishda shakllanadi. Birinchidan, xalqaro huquqiy hujjatlarning milliy qonunchilik bilan uyg'unlashuvi va ularning samaradorligi masalasi. Ikkinchidan, migrantlarning huquqlarini buzish holatlari, bu jarayonda davlatlarning javobgarligi hamda monitoring va nazorat mexanizmlarining yetarlicha ishlamasligi. Uchinchidan, xalqaro hamkorlikning bu boradagi roli va migrantlar huquqlarini ta'minlashda xalqaro tashkilotlarning ishtiroki.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot migrantlarning huquqiy himoyasini ta'minlashda xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarning real samaradorligini baholashga xizmat qiladi. Mavzuning dolzarbliigi nafaqat global miqyosda, balki O'zbekistonning xalqaro-huquqiy amaliyotida ham muhim o'rin tutadi. Migrantlar huquqlarini real himoya qilish va mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha huquqiy tizimni takomillashtirish zarurati ushbu masalaning nafaqat akademik, balki amaliy ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda.

Avvalo, migrantlar huquqlarining xalqaro va milliy huquqiy kafolatlari deganda, albatta, BMTning inson huquqlari sohasida universal xalqaro kelishuvlar asosida tashkil etilgan konvension organlarga kiruvchi Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarini huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita ko'z oldimizga gavdalanadi. Ushbu qo'mita 2003- yilda tashkil etilgan bo'lib, uni mehnat migrantlari va oila a'zolarini huquqlarini himoy qilishning xalqaro miqqiyosdagi asosiy mexanizm desak, mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu qo'mita haqida G.Yuldasheva va N.Gafurova quyidagi fikrlarni keltirishadi, "Mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish bo'yicha qo'mita BMTning Barcha mehnatkash migrantlar va ularning oila a'zolari huquqlarini muhofaza qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyasiga rioya etish ustidan kuzatuvchi mustaqil ekspertlardan iborat tarkibda ishtirokchi mamlakatlar tomonidan shakllantirilgan organ"¹. Bundan shuni anglash mumkinki ushbu qo'mita, yuqorida aytganimizdek, migrantlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha xalqaro miqqiyosdagi asosiy mexanizmlardan biridir. Unda "ekspertlar yuqori axloqiy sifatlar, xolislik va mehnat migratsiyasi sohasida tan olingan layoqatlilik sifatiga ega bo'lishi lozimligi belgilangan"¹. Ushbu

qo'mitaga a'zolik masalasiga kelsak, "qo'mita a'zolari ishtirokchi davlatlar tomonidan yashirin ovoz berish yoli bilan saylanadi, bunda haqli ravishda geografik taqsimlanish, shu jumladan, ham mehnatkash- migrantlarni yetkazuvchi davlatlar, ham ularni ishga yollovchi davlatlar, shuningdek, asosiy huquqiy tizimlardan vakillik ham hisobga olinadi. Har bir ishtirokchi davlat o'z fuqarolari orasidan birini nomzod sifatida ilgari surishi mumkin. Qo'mita a'zolari saylanadilar hamda o'z funksiyalarini shaxsiy sifatlaridan kelib chigib bajaradilar"¹. Ya'ni, qo'mita a'zolari yashirin ovoz berish orqali saylanadi, shuningdek ishchi kuchini yetkazib beruvchi davlatlar, ish beruvchi davlatlar va huquqiy tizimlardan vakillik deganda, kontinental huquq tizimidan yoki umumiy huquq tizimidan vakillikni ham hisobga oladi. Misol yordamida tushuntirsak, aytaylik, qo'mitasi tarkibiga 14 nafar a'zo saylanishi kerak, O'zbekiston o'zidan hujjatshunos yoki xalqaro huquq bo'yicha mutaxassis bo'lgan bir nomzodni ilgari suradi, Saudiya Arabistoni ham o'zidan mehnat huquqi bo'yicha ekspert bo'lgan nomzodni ilgari suradi, AQSh yoki Buyuk Britaniya umumiy huquq tizimi vakilini qo'mita a'zoliciga tavsiya qiladi. Ishtirokchi davlatlar yashirin ovoz berib, migrantlarni himoya qila oladigan eng malakali nomzodlarni tanlaydi. Saylangan a'zolar o'z mamlakati manfaatlaridan emas, migrantlarning huquqlaridan kelib chiqib, mustaqil ishlaydi.

Qo'mita qanday sharoitda alohida shaxslarning shikoyatlarini qabul qilishi va ko'rib chiqishi huquqiga ega bo'lishi tartibi quyidagicha, "qo'mita, basharti konvensiyaning kamida o'nta ishtirokchi davlati tegishli murojaat bilan chiqsa, alohida shaxsning ishtirokchi davlat uning konvensiyada ko'zda tutilgan shaxsiy huquqlarini buzganligi to'g'risidagi axborotini qabul qilish va ko'rib chiqish huquqini qo'lga kiritadi. Bunday axborotlar faqatgina qo'mitaning axborotlarni ko'rib chiqishga nisbatan vakolatini tan olgan davlatlarga nisbatan qo'llanishi mumkin"¹. Bundan shuni anglash mumkinki, qo'mita har qanday shaxsning shikoyatini avtomatik qabul qilmaydi. U bunday vakolatga ega bo'lishi uchun kamida 10 ta davlat rasmiy ravishda unga ruxsat berishi kerak. Bundan tashqari, shikoyat faqat shu vakolatni tan olgan davlatlarga nisbatan qo'llanadi. Buni ham misol orqali tushuntirsak, aytaylik, O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Saudiya Arabistoni va yana 6 ta davlat rasman Qo'mitaga shaxsiy shikoyatlarni ko'rib chiqish huquqini bergan bo'lsa, va O'zbekiston fuqarosi bo'lgan bir migrant Rossiyada ishlayotganida huquqlari buzilganini da'vo qilsa, u BMT Qo'mitasiga shikoyat berishi mumkin. Chunki Rossiya bu vakolatni tan olgan. Agar shu migrant Turkiyada ishlayotgan bo'lsa, lekin Turkiya bu vakolatni tan olmagan bo'lsa, u holda Qo'mita bu shikoyatni ko'rib chiqolmaydi.

Migratsiya masalasi bo'yicha F. Razakova quyidagi fikrlarni keltiradi, "Milliy hukumatlar migratsiya bo'yicha rasmiy tartibga solish vakolatini global milliy hokimiyatga topshirishni yoki hatto mintaqaviy darajada (odatda) ancha past umumiy maxrajdan tashqari xalqaro hamkorlikning umumiy tamoyillarini muhokama qilishni juda istamaydi. Bu istamaslik istehzoli, chunki davlatlar hech qachon migratsiya ustidan to'liq suveren nazoratga ega bo'lmagan va globallashuv davrida o'zlari ega bo'lgan oz narsaning ko'pini yo'qotgan. Ish beruvchilar, kontrabandachilar, migrantlar tarmoqlari, agentlar va individual muhojirlar qabul qilish, chiqish va ishga joylashish, shuningdek, qolish muddati va muddatlari bo'yicha milliy siyosatlariga qarshi chiqishda davom etmoqda. Hukumatlar ruxsat etilmagan migratsiyaga qarshi ko'plab janglarda g'alaba qozonishdi, lekin ular o'z hududlariga kimlar kirib, chiqib ketishi va qolishini nazorat qilish uchun urushda umuman mag'lub bo'lmoqda"². Muallif bu bilan migratsiyani boshqarish borasida milliy hukumatlarning cheklangan imkoniyatlari va

ziddiyatli yondashuvlari haqida tanqidiy fikr bildiradi. Ya'ni, davlatlar migratsiyani xalqaro hamkorlik bilan emas, faqat o'z darajasida boshqarishga urinyapti, lekin bu strategiya samarasiz bo'lib chiqmoqda. Globallashuv sharoitida migratsiyani faqat milliy siyosat bilan boshqarish yetarli emas, xalqaro darajadagi hamkorlik va yangi yondashuvlar kerak.

Migratsiya masalasi muammolarga boy masalalardan biri hisoblanadi. Bu borasida Sh.U.Aminov quyidagi fikrlarni bildiradi, "Ma'lumki, harakat faoliyati mobaynida aksariyat migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning huquqlari poymol qilinadi; aksariyat holatlarda o'zlari yo'nalish olgan manzil mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga nisbatan integratsiyalashuv qiyin kechishi mumkin; migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning malakali va zarur hisoblangan kadrlariga nisbatan arzon ishchi kuchi sifatida raqobatbardosh bo'lib, ularni ish joylaridan mahrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko'plab sabablarga ko'ra migratsiya holatini har tomonlama, jumladan huquqiy tartibga solish muhim ahamiyatga ega"³. Bu bilan muallif migratsiya masalasi nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham murakkab ekani, shu sababli uni har tomonlama tartibga solish zarurligini ta'kidlamogda. Migratsiya bu shunchaki odamlarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi emas. Ya'ni, bu huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy oqibatlariga ega murakkab jarayon. Shuning uchun, migratsiyani faqat nazorat qilish emas, balki, huquqiy jihatdan tartibga solish, migrantlarni himoya qilish shuningdek, mahalliy va migrantlar o'rtasidagi ijtimoiy muvozanatni saqlash zarur. Ya'ni migratsiyaga qarshi kurashish emas, uni adolatli va huquqiy asosda boshqarish kerak degan fikr ilgari surilmoqda.

N. Imomova migratsiyaning aniqlovchi mezonlari haqida o'z fikrlarini bildiradi, "Ishchi kuchi migratsiyasining, butun aholi migratsiyasi kabi, makonda xilma-xil ko'chib yurish turlaridan ajratishning umumiy qabul qilingan mezonlari mavjud. Ularga doimiy yashash joyini o'zgartirish, hududining majburiy chegaralarini kesib o'tish, migrantning yangi yashash joyida uzoq muddat yoki doimiy turishi kiradi. Mehnat migratsiyasi vujudga kelishining asosiy motivlaridan biri, mehnatga yaroqli aholining yuqori ish haqi olish maqsadida o'zi uchun qulay sharoitli ish joyiga ega bo'lishi hamda o'zining eng yaxshi mehnat faoliyatiga erishish istagi hisoblanadi"⁴. Muallif bu orqali ishchi kuchi migratsiyasining aniqlovchi mezonlari va asosiy sabablarini tushuntirib bermoqda. Ya'ni, ishchi migratsiyasi — bu shunchaki harakat emas, balki iqtisodiy va ijtimoiy sabablar bilan bog'liq, maqsadli va tizimli jarayondir. Uni boshqa migratsiya shakllaridan ajratadigan aniq belgilari bor va u, asosan, yaxshi ish sharoitlari va daromad izlash motivi bilan yuzaga keladi.

Ushbu fikrlar mehnat migratsiyasi — haqida chuqur, tizimli tahlil berib, uning iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va siyosiy jihatlarini yoritadi. Ularni bir- biri bilan taqqoslagan holda, quyidagi umumiy xulosani chiqarish mumkin, migratsiya — bu shunchaki odamlarning harakati emas, balki global darajadagi murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa bo'lib, u davlatlar suvereniteti, inson huquqlari va global iqtisodiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bu jarayonni har tomonlama tartibga solish, migrantlar huquqlarini kafolatlash va xalqaro darajada muvofiqlashtirish muhim va zarurdir.

Endi ushbu mavzuga oid bo'lgan xalqaro va milliy huquqiy hujjatlarni tahlil qilsak. Migrantlar huquqlarini himoya qilishning asosiy normalari 1990- yil 18- dekabrda qabul qilingan "Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi xalqaro konvensiyada mustaxkamlangan. Unda mehnat migrantlari huquqlariga oid ko'plab normalar belgilangan bo'lib, quyida ushbu konvensiyada mavjud bo'lgan asosiy moddalarni

tahlil qilamiz. Ushbu konvensiyaning ikkinchi bobida migrantlar huquqlarini ta'minlashda diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik, uchinchi bobida mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari huquqlari, to'rtinchi bobida huquqiy maqomga ega bo'lgan mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining boshqa huquqlari, beshinchi bobida ayrim toifaga mansub mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolariga tatbiq etiladigan qoidalar, oltinchi bobida mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining xalqaro migratsiya bilan bog'liq holda sog'lom, adolatli, insonparvar va qonuniy shart-sharoitlarni rag'batlantirish belgilangan. Konvensiyaning 7- moddasida "Ishtirokchi davlatlar, inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlar bilan muvofiq holda, ushbu Konvensiyada nazarda tutilgan huquqlarni o'z hududida yoki yurisdiksiyasi ostida bo'lgan barcha mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari uchun jins, irq, teri rangi, til, din yoki e'tiqod, siyosiy yoki boshqa qarashlar, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, fuqaroligi, yoshi, iqtisodiy ahvoli, mulkchilik holati, oilaviy maqomi, tug'ilgan joyi yoki boshqa holatlaridan qat'i nazar hurmat qilish va ta'minlash majburiyatini oladilar"⁵ degan qoida belgilangan. Bu moddada belgilangan norma etiborga arzirli va eng muhim qoidalardan biri deb hisoblayman. Ya'ni, moddaning asosiy mohiyati mehnat muhojiri yoki ularning oila a'zolari kim bo'lishidan qat'i nazar ularning huquqlari tan olinishi va hurmat qilinishi kerak. Moddada "without distinction of any kind" (hech qanday tafovutsiz) degan ibora orqali xalqaro huquqda keng qo'llaniladigan kamsitmaslik prinsipi mustahkamlangan. Ya'ni quyidagi asoslarda diskriminatsiya qat'iyan man etiladi: jins, irq, teri rangi, til, din yoki e'tiqod, siyosiy yoki boshqa qarashlar, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, fuqaroligi, yoshi, iqtisodiy ahvoli, mulkchilik holati, oilaviy maqomi, tug'ilgan joyi yoki boshqa holatlar. Bu ro'yxat ochiq, ya'ni boshqa har qanday asosdagi kamsitish ham man etiladi. Modda barcha ishtirokchi davlatlarni (Konvensiyaning ratifikatsiya qilgan) ushbu majburiyatlarni o'z hududida yoki yurisdiksiyasi ostida bo'lgan shaxslarga nisbatan bajarishga chaqiradi. Ya'ni, muhojirlar qonuniy yoki noqonuniy maqomda bo'lishidan qat'i nazar, ularga nisbatan asosli kamsitish bo'lmasligi kerak shuningdek, davlatlar faqat o'z fuqarolari emas, chet ellik muhojirlar huquqlarini ham teng asosda himoya qilishi kerak. Ushbu moddaning huquqiy ahamiyati shundaki, bu modda xalqaro inson huquqlari normalariga (masalan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Xalqaro fuqarolik va siyosiy huquqlar pakti, va boshqalar) tayangan holda yozilgan va kamsitmaslik tamoyili — bu inson huquqlari tizimining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ammo, amalda ko'plab mamlakatlarda muhojirlar jinsiy, diniy yoki milliy kelib chiqishiga qarab kamsitishga uchraydi. Ish beruvchilar, migratsiya xizmatlari yoki jamiyatning o'zi tomonidan bu tamoyil ko'pincha buziladi. Shu bois bu modda faqat huquqiy deklaratsiya bo'lib qolmasdan, amaliy siyosat va qonunlar orqali ta'minlanishi lozim. Ushbu konvensiyadan mehnat migrantlari huquqlariga oid bo'lgan ko'plab normalarni keltirishimiz mumkin, misol uchun, 8-moddasida "mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolari har qanday davlatni, shu jumladan o'z davlatini tark etishda erkindir. Ushbu huquq hech qanday cheklovlarisiz amalga oshiriladi, qonunda nazarda tutilgan, milliy xavfsizlikni, jamoat tartibini, sog'liqni saqlash yoki axloqni yoki boshqalarning huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun zarur bo'lgan va Konvensiyaning ushbu qismida tan olingan boshqa huquqlarga mos keladigan cheklashlar bundan mustasno. Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari istalgan vaqtda o'zlarining kelib chiqishi davlatiga kirish va qolish huquqiga ega"⁵ligi, 9-moddasida "mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarining yashash huquqi qonun bilan himoya qilinadi"⁵degan qoida va 10-moddasida "hech bir mehnat migranti yoki uning oila a'zosi qiynoqqa solinishi, shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni

kamsituvchi muomala yoki jazoga duchor bo'lishi mumkin emas"⁵ ligi kafolatlangan. Bularidan tashqari ushbu konvensiyada yana bir muhim qoidalardan biri bo'lgan shaxsiy daxlsizlik huquqi ham kafolatlangan. Konvensiyaning 14-moddasida "hech bir mehnat migrantining yoki uning oila a'zolarining shaxsiy daxlsizligiga, oilaviy daxlsizligiga, yozishmalari yoki boshqa aloqalariga o'zboshimchalik bilan yoki qonunga xilof ravishda daxl qilinishi, sha'ni va obro'siga noqonuniy tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir mehnat migranti va uning oila a'zosi bunday aralashuv yoki hujumlardan qonun himoyasiga ega bo'lish huquqiga ega"⁵ deya belgilangan. Ya'ni, bu modda, mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining inson huquqlarini himoya qilishda davlatlarning majburiyatlarini belgilaydi. Moddada mehnat muhojirining shaxsiy daxlsizligini ta'minlashni nazarda tutiladi. Bu shuni anglatadiki, hech kim, shu jumladan davlat organlari ham, muhojirning shaxsiy hayotiga, u yashayotgan joyga, shaxsiy hujjatlariga yoki mulkiga o'zboshimchalik bilan aralasha olmaydi.

Konvensiyaning asosiy maqsadi mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining inson huquqlarini himoya qilish, ularni adolatli va insonparvar sharoitda yashashini ta'minlashdir. Konvensiya mehnat muhojirlarining va ularning oilalarining shaxsiy daxlsizligi, mehnat sharoitlari, ijtimoylashtirish va ijtimoiy himoya masalalarida asosiy huquqiy kafolatlarni taqdim etadi. Konvensiya mehnat muhojirlariga adolatli mehnat sharoitlari va qonuniy ish shartlarini ta'minlashga qaratilgan. Bunda mehnat muhojirlari uchun yillik ta'til, mehnat haqining adolatli to'lanishi, ishlash vaqtini cheklash va ish joyidagi xavfsizlik kabi masalalar muhim hisoblanadi.

Yuqoridagilarda kelib chiqib konvensiya haqida quyidagi umumiy xulosaga kelishimiz mumkin, mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarini huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiya — bu xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, mehnat muhojirlarining va ularning oila a'zolarining inson huquqlarini himoya qilish, kamsitmaslik, shaxsiy daxlsizlik va adolatli mehnat sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan. Konvensiya davlatlarni mehnat muhojirlari va ularning oilalariga nisbatan huquqiy himoya va adolatli munosabatni kafolatlashga undaydi.

Migrantlar huquqlarini himoya qilishga doir O'zbekiston Respublikasida ham ko'plab normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Misol uchun 2024- yil 8- aprel kuni muhtaram prezidentimiz tomonidan "Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 59- sonli farmoni kuchga kirdi. Ushbu farmonning maqsadi "mehnat migratsiyasi jarayonlarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, chet elda mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo'lgan fuqarolarga qulay shart-sharoitlarni yaratish, mehnat migratsiyasidan qaytib kelgan shaxslarni reyintegratsiya qilish, shu jumladan ularning bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish"⁶ qilib belgilandi. Bundan tashqari 2024- yil 23- aprelda O'zbekiston Respublikasi Senatining " Mamlakatning migratsiya siyosati yo'nalishini yanada takomillashtirish masalalari haqida" qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning 2- ilovasida O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030- yilgacha bo'lgan strategiyasini ishlab chiqish bo'yicha "YO'L XARITASI" ishlab chiqildi. Ushbu "YO'L XARITASIDA" quyidagilar belgilandi:

"Migratsiya sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish.

Migratsiya sohasidagi joriy holat va mavjud muammolarni o'rganish.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi muammolarini o'rganish.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xorijda noqonuniy (nolegal) maqomda bo'lishi va uning salbiy oqibatlari bilan bog'liq muammolarni o'rganish.

Mehnat migratsiyasi jarayonlarida qatnashadigan fuqarolar haqida ma'lumotni shakllantirish.

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar mehnat bozorida talab etilayotgan malakali mutaxassislar zaxirasini shakllantirish.

O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasi doirasida erishilishi ko'zda tutilayotgan maqsadlarni aniqlash va ularga erishishning asosiy yo'nalishlarini belgilash.

O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasidan kutilayotgan natijalarni tahlil qilish.

O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasini amalga oshirish, monitoring qilish va moliyalashtirish mexanizmini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasining migratsiya siyosati yo'nalishida 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasining loyihasini xalqaro standartlarga muvofiq ishlab chiqish"⁷. Umumiy xulosa qilganda ushbu hujjat mamlakatning mehnat migratsiyasi sohasida yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish va migratsiya jarayonlarini tartibga solish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qarorda, mehnat muhojirlari va ularning oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy ta'minot tizimini yaxshilash va xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga yordam ko'rsatish borasida bir qator muhim tashabbuslar kiritilgan. Qaror doirasida, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun quyidagi masalalar ko'rib chiqilgan:

Mehnat muhojirlari huquqlarining himoyasi – migratsiya sohasida fuqarolarning huquqlarini ta'minlash, ularning ishlash sharoitlarini yaxshilash va immigratsiya jarayonlarini soddalashtirish;

Tashqi mehnat bozorida o'zbek fuqarolarini qo'llab-quvvatlash – mehnat muhojirlari uchun ijtimoiy, huquqiy va moliyaviy yordam ko'rsatish tizimlarini joriy etish;

Oilaviy qo'llab-quvvatlash va sog'liqni saqlash tizimi – migratsiya jarayonida fuqarolarning oila a'zolariga ham yordam berish, ularning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

Mehnat migratsiyasi sohasida xalqaro hamkorlik – mehnat muhojirlarining huquqlarini himoya qilish va xalqaro normativlarga moslashtirish uchun boshqa davlatlar bilan hamkorlikni mustahkamlash.

Shuningdek, ushbu qaror mamlakatning mehnat migratsiyasi siyosatini takomillashtirish va xalqaro tajribalar asosida yangi yondashuvlarni joriy qilishga qaratilgan.

Xulosa

Yuqorida qilingan tahlillardan kelib chiqib, ushbu tadqiqotimizga quyidagicha yakuniy xulosani qilish mumkin. Migrantlar huquqlari bugungi globallashtirish va ijtimoiy-siyosiy beqarorliklar sharoitida dolzarb inson huquqlari masalalaridan biriga aylangan. Migratsiya jarayoni ko'p hollarda majburiy xarakter kasb etgani bois, migrantlar o'z yurtlarini tark etgan paytdan boshlab qator huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga duch keladilar. Xalqaro huquq darajasida migrantlar huquqlari BMTning "Mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Konvensiyasi", Xalqaro Mehnat Tashkiloti

konvensiyalari, 1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa normativ hujjatlar bilan kafolatlangan. Shu bilan birga, ko'plab davlatlar, jumladan O'zbekiston ham, o'z milliy qonunchiligida migrantlarning asosiy huquqlarini tan olgan va ularni tartibga soluvchi mexanizmlarni joriy qilgan. Biroq, nazariy kafolatlar amaliyotda har doim ham samarali ishlamayapti. Migrantlar ko'pincha yashash va mehnat qilish huquqlaridan mahrum bo'ladi, kamsitish va huquqiy himoyasizlikka uchraydi, mehnat sharoitlari, tibbiy xizmat, ijtimoiy ta'minot va huquqiy yordamdan foydalanishda cheklovlariga duch keladi. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat, qonunchilikdagi umumiylilik va amaliy mexanizmlarning zaifligi, ijro organlarining yetarli malaka va siyosiy irodaga ega emasligi va migrantlarning o'z huquqlaridan bexabar bo'lishi yoki ularni amalga oshirishda huquqiy yordam ololmasligi. Shunday ekan, migrantlar huquqlarining real himoyasini ta'minlash uchun faqat "qog'ozdagi qonunlar" emas, balki amaliy, tizimli va xalqaro hamkorlikka asoslangan chora-tadbirlar zarur. Bu muammolarga yechim sifatida quyidagi takliflarni berishimiz mumkin. Huquqiy savodxonlikni oshirish, migrantlarga ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida muntazam huquqiy maslahat va axborotlar berib borilishi lozim. Shuningdek, xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga ham alohida etibor qaratish lozim. Qabul qiluvchi davlatlar bilan ikki tomonlama kelishuvlar doirasida migrantlarning huquqlari amalda kafolatlanishi kerak.

Demak, migrantlar huquqlari masalasi faqatgina qog'ozdagi qonunlar bilan cheklanmasligi lozim. Haqiqiy huquqiy himoya — bu normativ asoslar bilan birga, ishonchli ijro tizimi, xalqaro hamkorlik va kuchli huquqiy madaniyatni talab etadi. Har bir migrant — inson. Ularning huquqlari esa universal va daxlsizdir. Shu tamoyil amalda to'liq ishlamaguncha, inson huquqlari to'liq ta'minlandi deb bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Yuldasheva, N.Gafurova - Inson huquqlari darslik.: Toshkent - 2023
2. Razakova Farangiz Karim qizi "MIGRATSIYA BO'YICHA XALQARO ME'YORIY-HUQUQIY BAZA"
3. Sh.U.Aminov "MIGRATSIYA SOHASINI SAMARALI BOSHQARISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING TUTGAN O'RNI"
4. monografiya imomova N.Imomova "O'ZBEKISTONDA MEHNAT MIGRATSIYASINING IJTIMOIIY TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONLARIGA TA'SIRI"
5. International Convention on the Protection of the Rights of All Migrant Workers and Members of Their Families (18 December 1990)
6. <http://lex.uz//docs/-6868721> Mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish hamda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan shaxslarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida
7. <http://lex.uz//uz/docs/-6906502> Mamlakatning migratsiya siyosati yo'nalishini yanada takomillashtirish masalalari haqida